



OILA MUHITINING BOLA PSIXIKASIGA TA'SIRI

Kurbanova Gulchehra Abdullayevna¹, Jumanova Bibixon Xasanjon qizi²

¹Perfect universiteti "Gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti

²41-23 Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila muhitining bola psixikasi shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Jumladan, oiladagi emotsional muhit, tarbiya uslublari, psixologik muvozanat va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning bolaning ruhiy salomatligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Maqolada zamonaviy psixologik yondashuvlar va milliy qadriyatlarga asoslangan fikrlar birgalikda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: oila, muhit, bola, psixika, pedagogik, tarbiya.

Kirish

Inson shaxsining shakllanishida eng muhim omillardan biri bu – oila hisoblanadi. Bola dunyoga kelganidan boshlab, uning psixologik, axloqiy, ijtimoiy rivojlanishi aynan oilada boshlanadi. Shuning uchun, bolalik davrida yaratilgan muhit, berilgan tarbiya va ota-onalarning unga nisbatan tutgan munosabati bola shaxsiyatining poydevorini tashkil etadi. Oila — bolaning birinchi maktabi hisoblanadi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, oiladagi muhit va ota-onalarning munosabati uning ruhiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Oddiy qilib aytganda, bola oilada qanday muhitda ulg'aysa, keyinchalik u ham shunday odam bo'lib ulg'ayadi. Men amaliyotda ko'p marta ko'rganman: mehribon va e'tiborli oilalarda o'sgan bolalar o'zini erkin tutadi, ishonchli bo'ladi. Aksincha, doim janjal va kelishmovchilik ko'p bo'ladigan oilalarning bolalari ko'pincha xavotirli, qo'rqqoq yoki tajovuzkor bo'lib qoladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Oila muhitining bola psixikasiga ta'siri doir pedagogik adabiyotlarda o'rganilgan. Oiladagi muhit bola psixikasiga quyidagicha ta'sir qiladi:

Mehr va iliqlik, agar bola ota-onasidan mehr va qo'llab-quvvatlash ko'rsa, o'zini qadrli va kerakli his qiladi.

Muloqot tarzlari, agar ota-ona bolani tinglasa, uning fikriga hurmat bilan yondashsa, bola ham o'z fikrini ochiq aytishga o'rganadi. Aksincha, doim urushib yoki koyib gapiradigan ota-onalar bolani o'zini yopib olishga majbur qiladi.

Tarbiya uslublari, qattiq jazolash yoki haddan oshib erkalatish ham bolaga zarar yetkazadi. Eng to'g'risi — o'rtacha va adolatli munosabatda bo'lish.

Shuni ham esda tutish kerakki, har bir bola o'ziga xos. Bitta usul hamma bolaga to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun har bir ota-ona o'z farzandining xarakterini inobatga olib, unga mos muhit yaratishga harakat qilishi kerak.

1. Oila muhitining bolaning ruhiy rivojlanishidagi o'rni

Oila bola uchun ilk psixologik maktabdir. Oilaviy muhitdagi barqarorlik, mehr, ishonch va ijobiy munosabatlar bolaning emotsional barqarorligini ta'minlaydi. O'z navbatida, bu bola o'zini xavfsiz his qiladigan, muammolarini ochiq ayta oladigan va o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

G'.B. Shoumarov va I.O. Haydarov o'zlarining "Oila psixologiyasi" nomli asarlarida bolani psixik rivojlantirishda ota-onalar o'rtasidagi muvofiqlik va bolaga nisbatan adolatli munosabat asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydilar [1].



2. Tarbiya uslublarining bola psixikasiga ta'siri

Oiladagi tarbiya uslublari bolada o'z-o'zini qadrlash, mas'uliyat hissi, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi sifatlarni shakllantiradi. Tarbiyaning avtoritar (qat'iy), demokratik (muvozanatli), liberal (erkin) shakllari bor. Har bir uslubning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Masalan, demokratik tarbiya bolaning mustaqil fikrlashi, tashabbus ko'rsatishi va ijtimoiy ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Avtoritar uslub esa bolada qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik yoki passivlikni shakllantirishi mumkin [2].

3. Oilaviy nizolar va ularning bola ruhiyatiga ta'siri. Ota-onalar o'rtasidagi doimiy janjal, e'tiborsizlik yoki zo'ravonlik bolaning psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Bu holatlarda bolalarda xavotir, agressiya, o'ziga past baho, hattoki depressiya alomatlari kuzatiladi. Psixolog A.V. Petrovskiy fikricha, bolalar oiladagi ziddiyatlarga bevosita guvoh bo'lishsa, bu ularning emotsional barqarorligiga zarar yetkazadi va ular kattalar hayotida ham muammolar bilan duch kelishlari mumkin [4].

4. Oila muhiti va bolada ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishi. Oila nafaqat psixologik, balki ijtimoiy jihatdan ham bolani tayyorlaydi. Bolaning jamiyatdagi tutgan o'rni, atrofdagilarga bo'lgan munosabati va xulq-atvori ko'p jihatdan oilada berilgan saboqlar asosida shakllanadi. Oila ichidagi muloqot madaniyati bolaning tashqi muhitda ham to'g'ri muloqot qilishini belgilaydi.

Oila – jamiyatning asosini tashkil etuvchi betakror yacheyka. U kishilik jamiyatida insoniy oriyat va nomusni anglash, shu tuyg'ularni sharaf va g'urur qadar idrok etishning hosilasi. Shunday bo'lgach, oila qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam bo'ladi. vatan erki va istiqlolning poydevori ham mustahkam bo'ladi. Oilaning mustahkamligi esa, faqat ijtimoiy-iqtisodiy omillargagina emas, balki ma'naviy omillarga ham chambarchas bog'liqdir. Binobarin, o'zbek oilalari ma'naviyatining tarixiy asoslarini oila va jamiyat, oilada ma'naviy muhit va uning sog'lomligi, bunda oilaviy an'analarning ahamiyati, oilada farzand tarbiyasi muammolarini istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan qarab chiqish va baholash g'oyat maroqlidir.

Shaxslararo munosabatlar, oila maskanida ota-ona va farzandlar orasidagi o'zaro munosabatlar qanchalik o'rganilgan va tadqiq etilgan mavzu bo'lishiga qaramay, uning juda ko'p jihatlari, jumladan, oila muhitida farzand va ota-ona orasidagi muomala, o'zaro munosabatlarda amaliy va hissiy tomonlarning ta'siri, shu jihatlarga ko'ra oiladagi bolaning rivojlanish xususiyatlari, oiladagi farzandning ota-ona munosabatlariga ko'ra o'z oilaviy hayotiga nisbatan munosabati o'rganilmagan. Ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlar masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelganligi tufayli, ular orasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarni kuzatib turish kerak. [2].

Demak, juda ko'p olimlarning ishlarini ko'rib chiqish orqali, oila maskani va u bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq etilganligini, oila masalari har bir millat uchun nihoyatda muhim masala ekanligidan dalolat berishini kuzatdik.

Xulosa qilib aytganda, oila – bola shaxsining shakllanishida birlamchi va eng muhim makon hisoblanadi. U yerda yaratilgan muhit, ota-onalarning tarbiyasi va o'zaro munosabati bolaning ruhiy rivojiga asos bo'ladi. Shuning uchun har bir ota-ona o'z farzandining psixologik holatini, hissiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda tarbiya berishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'.B. Shoumarov, I.O. Haydarov (2008). Oila psixologiyasi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. G.A. Kurbonova Oiladagi shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga san'at orqali ta'sir etishning muhim omillari. Монография. // “Musiq” нашриёти”, Тошкент – 2015й., – 126 бет.
3. G.A. Kurbonova. Psixologiya. Darslik. 2023. Musiq nashriyoti.
4. Abdullayeva D. (2015). Oila psixologiyasi. Toshkent: Tafakkur Bo'stoni.
5. Petrova A.V. (2019). Psixologiya semeynykh otnosheniy. Moskva: Nauka.
6. www.ziynet.uz – Psixologik maqolalar va oila tarbiyasi haqidagi internet materiallar.
7. www.pedagoglar.uz – O'zbekistondagi pedagoglar uchun ta'limiy resurslar.